

**FAOL INVESTITSIYA SIYOSATI SHAROITLARIDA SANOAT
KORXONALARIGA XORIJIY
INVESTITSİYALARNI JALB ETISH YO‘NALISHLARI**

Shavqiyev Erkin

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Iqtisodiyot fakulteti

Raqamli Iqtisodiyot kafedrası professori.

Yarmuxammedova Bahora Abdusalom qizi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

IK-122 guruh talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada faol investitsiya siyosati sharoitida sanoat korxonalariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish masalalari yoritiladi. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari, ularning sanoat tarmoqlari rivojiga ta'siri hamda ushbu jarayonda uchraydigan muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, sanoat korxonalarining investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Faol investitsiya siyosati, xorijiy investitsiyalar, sanoat korxonalari, investitsion jozibadorlik, investitsion muhit, iqtisodiy rivojlanish.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish va ularning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun xorijiy investitsiyalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xorijiy sarmoyalar sanoatni modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va innovatsion ishlab chiqarish jarayonlarini yo'lga qo'yishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli, O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun faol investitsiya siyosatini amalga oshirish dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda.

Investitsiya -iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o'z mamlakatida yoki chet ellarda turli tarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalariga uzoq, muddatli kapital kiritish. Pulning vaqt (zamon)ga bog'liq qiymati

nazariyasiga ko'ra, investitsiya kelajakda naf olish maqsadida mablag'lar qo'yishdir. Investitsiya kapitalni muayyan muddatga bog'lashni yoki band qilishni bildiradi. Bundan asosiy maqsad kapital qiymatini saqlab qolish yoki bo'lmasa kapital qiymatini vaqtda o'stirib borishdir.

Uning quyidagi turlari mavjud: davlat investitsiyasi -davlat byudjeti va moliya manbalari hisobidan kiritiladi; chet el investitsiyasi -xorijiy davlatlar, banklar, kompaniyalar, tadbirkorlar tomonidan kiritiladi; xususiy investitsiya -xususiy, korporativ xo'jalik va tashkilotlar, fuqarolar mablag'lari, shu jumladan, shaxsiy va jalb qilingan mablag'lar hisobidan qo'yiladi. Investitsiya qo'yilish shakliga qarab moliyaviy (portfel) va real (ishlab chiqarish) investitsiyaga bo'linadi.

Moliyaviy (portfel) investitsiya -aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlarni sotib olishga qo'yiladigan investitsiya; real investitsiya -moddiy ishlab chiqarish sohasiga, moddiy-ashyoviy faoliyat turlariga uzoq, muddatli mablag'lar qo'yish shakllarida amalga oshiriladi.

Investitsiya kiritishdan asosiy maqsad daromad olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishishdir.

Iqtisodiy kategoriya sifatida investitsiya quyidagicha tasniflanadi:

Birlamchi jamgarilgan kapitalni kopaytirish maqsadida kapitalni tadbirkorlik obektlariga joylashtirish;

Investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida investitsiya faoliyati ishtirokchilari ortasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardir.

Xorijiy investitsiyalarga asosan 2 guruh omillar ta'sir ko'rsatadi:

1) iqtisodiy omillar:

-ishlab chiqarishning rivojlanishi va iqtisodiy ushish suratlarning bir maromda ushlab turilishi;

-jahon va aloxida mamlakatlar iqtisodiyotida chukur tarkibiy siljishlarning amalga oshirilishi (fan-texnika tarakkiyoti yutuklari va jahon xizmatlar bozori tarakkiyoti tasiri ostida olib borilishi);

-ishlab chiqarishni xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvining chukurlashuvi;

-jahon iqtisodiyotini transmilliylashtirilishini osib borishi;

-ishlab chiqarishning baynalminallashuvi va integratsiya jarayonlarining chukurlashib borishi;

-xalqaro iqtisodiy munosabatlar (XIM)ning faol rivojlanishi.

2) siyosiy omillar:

-kapital eksporti (importi)ni erkinlashtirish;

-rivojlanayotgan mamlakatlarda industirlashtirish siyosatini olib borish;

-iqtisodiy isloxotlarni olib borish (davlat korxonalarini xususiylashtirish, xususiylash sektorni va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash);

-bandlik darajasini ushlab turish siyosatini olib borish va boshqalar.

Sanoat korxonalariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun quyidagi asosiy yo'nalishlar mavjud: Investitsion muhitni yaxshilash, soddalashtirilgan soliq tizimi va huquqiy kafolatlar yaratish, investorlarga qulay biznes muhiti yaratish, byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, erkin iqtisodiy zonalar va maxsus industrial hududlar tashkil etish, investorlarga soliq imtiyozlari berish, infrastrukturani rivojlantirish, mahalliy hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirish, davlat-xususiylash sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish, strategik tarmoqlarda hamkorlikni yo'lga qo'yish, qo'shma korxonalar tashkil etish, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, texnologik transfer va innovatsiyalarni rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot loyihalarini qo'llab-quvvatlash, xalqaro korporatsiyalar bilan hamkorlik qilish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan kooperatsiyani rivojlantirish, ishbilarmonlik muhiti va kadrlar salohiyatini oshirish, malakali mutaxassislarni tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish, chet el investorlariga ma'lumot va maslahat xizmatlarini taqdim etish va ishbilarmonlik forumlari va ko'rgazmalar tashkil etish.¹

¹ Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma.-T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. - 170 bet

Xulosa qilib aytish mumkinki, faol investitsiya siyosati sharoitida sanoat korxonalariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mamlakat iqtisodiy o'sishining muhim omili hisoblanadi. Sarmoyadorlar uchun qulay shart-sharoit yaratish, investitsion muhitni yaxshilash va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish sanoat tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bois, O'zbekiston hukumati xorijiy investorlarni jalb etish borasida uzluksiz islohotlarni amalga oshirib, sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Artikov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik -T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2012. 220 bet.
2. Bekmurodov A. SH., G'ofurov U.V. O'zbekistonda Iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: Natijalar va ustuvor yo'nalishlar. O'quv qo'llanma. -T.: 2005.-102 bet.
3. Zaysev N.L. Ekonomika prombishlennogo predpriyatiya. Uchebnik. -M.: «Infra-M», 2008. - 410 str.
4. Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma.-T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. - 170 bet